



**TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN INVESTITSION
LOYIHALARNI MOLIALASHTIRISHNI AMALDAGI HOLATI
TAHLILI**

Maxmudov Asilbek Furqatjon o'g'li

magistrant, "Bank ishi va auditi" mutaxassisligi, TDIU

Ilmiy rahbar: PhD, dots. **S.S.Nematulloyev**

***Annotatsiya.** Mazkur tezisda tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish masalalari ko'rib chiqilgan. "Investitsion kredit" tushunchasiga mualliflik ta'rifi taklif etilgan, 2021–2025-yillar statistik ma'lumotlari asosida kredit qo'yilmalari va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi funksional bog'liqlik tahlil qilingan. "Asakabank" va "O'zmilliybank" banklari misolida investitsion kreditlash amaliyotining holati baholangan hamda tizimni takomillashtirish bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.*

***Kalit so'zlar:** investitsion kredit, tijorat banki, investitsion loyiha, kredit riski, moliyalashtirish mexanizmi, risklar boshqaruvi, sindikatlashgan kredit, depozit siyosati.*

1. Kirish

Bugungi global iqtisodiy raqobat sharoitida milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan investitsion faollikning darajasiga bog'liq. Investitsion jarayonlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashda tijorat banklari strategik vositachi sifatida muhim o'rin egallaydi. Binobarin, banklar tomonidan ajratilayotgan investitsion kreditlar ishlab chiqarish bazasini modernizatsiya qilish, yangi texnologiyalarni joriy etish va iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda asosiy moliyaviy manbaga aylanib bormoqda.



O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ta'kidlashicha, "Iqtisodiy o'sishga, avvalo raqobatdosh sanoat zanjirlarini yaratish hamda bunday loyihalarga investitsiyalarni ko'paytirish orqali erishiladi". Mazkur maqsadni amalga oshirishda tijorat banklarining investitsion faoliyatini kengaytirish, risklarni boshqarish tizimini takomillashtirish va moliyalashtirish mexanizmlarini yangilash dolzarb ilmiy-amaliy vazifaga aylanadi. Shu sababli ushbu tezisda tijorat banklari tomonidan investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini ilmiy tahlil qilish va uni rivojlantirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqish maqsad qilib qo'yilgan.

2. Nazariy asos va muammoning tahlili

Iqtisodiy adabiyotlarda "investitsion kredit" tushunchasining ta'rifi haqida yagona yondashuv mavjud emas. Rossiyalik olimlar M.V.Alikayeva va L.O.Aslanova (2018) uni maqsadli, loyihaning qoplash muddatidan oshmaydigan muddatga beriladigan kredit sifatida ta'riflaydi. O.I.Lavrushin (2009) muddati 6 yildan ortiq bo'lgan uzoq muddatli kreditlarni investitsion kredit deb hisoblaydi. P.P.Knyazev, M.N.Klimenko va D.V.Motornyuk (2019) esa uni bozor tamoyillariga, vaqt, risk va likvidlik omillariga bog'liq iqtisodiy munosabat sifatida baholaydi.

Mahalliy adabiyotlarda Sh.Z.Abdullayeva (2000), Yo.Abdullayev va boshqalar (2010) kreditlash tamoyillarini qaytarib berishlik, muddatlilik, ta'minlanganlik, maqsadlilik, to'lovlilik va samaradorlik tarzida belgilaydi. Mazkur ta'riflarda kredit manbai sifatida aynan loyihadan olingan daromadlar ko'rsatilmaligi, shuningdek differensial yondashuv tamoyilining e'tibordan chetda



qolishi asosiy kamchilik hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan mualliflik ta'rifi taklif etiladi:

Investitsion kredit — bu bozor qonuniyatlari, vaqt, risk va likvidlik omillariga tayangan holda qonun bilan taqiqlanmagan tadbirkorlik faoliyati obyektlariga foyda yoki ijtimoiy samara olish maqsadiga asoslangan investitsiya loyihasining qoplash muddatidan ortiq bo'lmagan muddatda qaytarishlik, muddatlilik, to'lovlilik, ta'minlanganlik, maqsadli ishlatilish, samaradorlik va differensial yondashuv tamoyillariga amal qilgan holda kreditor tomonidan qarz oluvchiga taqdim etiladigan kredit.

Taklif etilgan ta'rif mavjud ta'riflardan uchta muhim jihatda farqlanadi: birinchidan, kreditning manbasi sifatida aynan loyihadan olinadigan pul oqimlari ko'rsatilgan; ikkinchidan, samaradorlik va differensial yondashuv tamoyillari kredit shartlari tarkibiga kiritilgan; uchinchidan, ijtimoiy samara konsepsiyasi iqtisodiy foyda bilan birga tadqiq etilgan.

3. Amaldagi holat va statistik tahlil

O'zbekiston iqtisodiyotida 2021–2025-yillar davomida investitsion faollik sezilarli darajada yuksaldi. Ushbu jarayonda tijorat banklari kreditlarining YAIMga nisbati 12,8 foizdan 32,4 foizgacha oshgani bank tizimining real sektor bilan integratsiyasi kuchayganligini ko'rsatmoqda (1-jadval).

1-jadval. Iqtisodiyotga yo'naltirilgan investitsiyalar va tijorat banklari kreditlari dinamikasi (2021–2025)

Ko'rsatkich	2021	2022	2023	2024	2025
YAIM hajmi, trln so'm	861,2	1041,9	1261,8	1535,4	1849,7
Asosiy kapitalga inv., trln so'm	72,2	124,2	189,9	535,0	591,1
Investitsiyalar/YAIM, %	8,4	11,9	15,0	34,8	32,0
Bank kreditlari, trln so'm	110,6	167,4	211,6	520,0	600+
Kreditlar/YAIM, %	12,8	16,1	16,8	33,9	32,4

Manba: O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi va Markaziy bank yillik hisoboti, 2025.

Jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalar hajmi 2021-yildagi 72,2 trln so'mdan 2025-yilga kelib 591,1 trln so'mga yetib, 8 baravardan ziyod oshgan. Bu holat, birinchi navbatda, bank kreditlash siyosatining sanoat, qishloq xo'jaligi va infratuzilma loyihalariga faol yo'naltirilishi bilan izohlanadi. Kredit qo'yilmalari va investitsiyalar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni tahlil qilish natijasida iqtisodiyotda «kredit – investitsiya – iqtisodiy o'sish» zanjirining amalda ishlayotganligi tasdiqlanmoqda.

Kredit portfeli tarkibiy tahlili investitsion yo'nalishdagi kreditlarning ulushi ortib borayotganini ko'rsatadi: ipoteka kreditlari 17 foizga, tadbirkorlikni rivojlantirish kreditlari 22 foizga, lizing va faktoring operatsiyalari esa 28 foizga oshgan. Shu bilan birga, sindikatlashtirilgan kreditlarning 13 foizga qisqarishi yirik investitsion loyihalarni birgalikda moliyalashtirishda muayyan muammolar mavjudligini ko'rsatadi.

Makroiqtisodiy omillar tahlili kreditlash jarayonining inflyatsiya, foiz stavkalari va valyuta kursiga yuqori darajada bog'liqligini ko'rsatadi. 2025-yilda tijorat banklari kreditlari bo'yicha o'rtacha foiz stavkasi 22,0 foizni tashkil etgani, valyuta kursining esa 10 800 so'mdan 12 800 so'mga ko'tarilgani investitsion loyihalar rentabelligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

3.1. Amaliy tadqiqot: "Asakabank" ATB misolida risk tahlili

"Asakabank" ATB misolida investitsion kreditlar risk darajasi bo'yicha taqsimlanishi tahlil qilingan. 2020–2024-yillar davomida bank investitsion kreditlarining 87–93 foizi standart toifada saqlanib qolgan. Biroq, 2023-yilda substandart kreditlar ulushining 12,20 foizga oshishi va 2024-yilda umidsiz kreditlar ulushining 0,47 foizga yetishi kredit portfeli sifatini nazorat qilish tizimini mustahkamlash zarurligini ko'rsatmoqda.

2-jadval. "Asakabank" ATB investitsion kreditlari risk darajasi bo'yicha (2020–2024), mlrd so'm

il	Ja mi kreditlar	Sta ndart, %	Substa ndart, %	Qoni qarsiz, %	U midsiz, %	Z ahira (mlrd)
----	-----------------------	-----------------	--------------------	-------------------	-------------------	----------------------



						so'm)
	3	91,	5,75	0,45	0,	6
020	423,0	53			27	7,11
	5	92,	5,74	0,36	0,	6
021	318,7	85			12	3,26
	15	90,	8,17	0,88	0,	2
022	811,6	36			05	13,44
	24	87,	12,20	0,29	0,	3
023	750,4	20			12	29,53
	26	92,	6,27	1,03	0,	4
024	321,8	02			47	70,01

Manba: "Asakabank" ATB yillik hisobotlari (2020–2024) asosida muallif tomonidan tuzildi.

2020–2025-yillar davomida bank investitsion kreditlaridan olingan foizli daromadlar jami foizli daromadlar tarkibida o'rtacha 56,0 foizni tashkil etib, 2025-yilga kelib 67,0 foizga yetgani kreditlash operatsiyalarining bank uchun asosiy daromad manbaiga aylanganligini tasdiqlaydi.

4. Mavjud muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari investitsion resurslarni boshqarish jarayonida quyidagi tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular tashqi va ichki omillar o'zaro ta'siridan kelib chiqadi.



Tashqi omillar:

- Davlat tomonidan tijorat banklari kredit siyosatiga ko'rsatilayotgan ta'sirlar va imtiyozli kreditlar ajratishda subyektiv yondashuvlarning kuzatilishi.
- 2021–2023-yillarda inflyatsiya darajasining 14–15 foizda saqlanib qolishi kredit foiz stavkalarini yuqori darajada ushlab turdi, bu esa qarz oluvchilar uchun moliyaviy yuk yaratdi.
- Xorijiy moliyaviy institutlardan jalb etilayotgan kredit liniyalari ulushining ortishi valyuta risklari konsentratsiyasini oshirmoqda.
- Aholining bo'sh pul mablag'larini depozitlarga jalb etishdagi o'rtacha tortilgan foiz stavkalarining inflyatsiya darajasidan past bo'lishi.

Ichki omillar:

- So'rovnomada qatnashgan bank xodimlarining 7,7 foizi kredit ajratish jarayonida korrupsion yondashuvlar mavjudligini ta'kidlagan.
- Respondentlarning 53,8 foizi rahbariyat tomonidan xodimlar mehnatining adolatli rag'batlantirilmasligini qayd etgan, bu kadrlar qo'nimsizligiga olib kelmoqda.
- Real vaqt rejimidagi monitoring tizimining yetarlicha rivojlanmaganligi muammoli kreditlarning kech aniqlanishiga sabab bo'lmoqda.

5. Ilmiy takliflar

Olib borilgan tadqiqot natijalari asosida tijorat banklarida investitsion kreditlash tizimini takomillashtirish yuzasidan quyidagi ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqildi:



1. Integratsiyalashgan risk boshqaruvi modeli. Loyihani baholash, qaror qabul qilish, monitoring va nazorat bosqichlarini yagona axborot platformasida birlashtiruvchi model joriy etish tavsiya etiladi. Bu model kreditlash limitlarini aniqlash, yo'qotishlar uchun zaxiralarni shakllantirish hamda har bir loyiha kesimida tabaqalashtirilgan stress-testlash mexanizmlarini qo'llash imkonini beradi.
2. "Loyihalar fabrikasi" instituti. Tijorat banklari huzurida investitsion loyihalarni shakllantirish, texnik-iqtisodiy asoslash, risklarni baholash va moliyalashtirishga tayyorlash jarayonlarini yagona tizimda boshqaruvchi institut tashkil etish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti ham ushbu tashabbusni alohida ta'kidlagan.
3. Shartli kredit liniyalari mexanizmi. Xalqaro va milliy moliya bozorlari imkoniyatlaridan foydalanish asosida zarurat yuzaga kelganda ishga tushiriladigan kredit liniyalari orqali uzoq muddatli moliyaviy resurslar jalb etish.
4. Ko'p omilli diagnostika tizimi. Kredit ajratishdan oldingi bosqichda loyiha tashabbuskorlarining moliyaviy barqarorligi, pul oqimlari va biznes-modelining hayotiyiligini kompleks baholashni ta'minlovchi metodika joriy etish.
5. Raqamli monitoring tizimi. Bank tomonidan investitsion kredit ajratilgan korxonaning moliya-xo'jalik faoliyatini real vaqt rejimida kuzatib borish, og'ishlarni avtomatik aniqlash va tezkor choralar ko'rish imkonini beruvchi dasturiy platforma yaratish.
6. Depozit siyosatini bozor talablariga moslashtirish. Depozit stavkalarining inflyatsiya darajasidan past bo'lmasligini ta'minlash orqali aholining bo'sh pul mablag'larini bank tizimiga jalb etish hajmini kengaytirish.



6. Xulosa

Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar shakllantirildi.

Birinchidan, 2021–2025-yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida investitsion rivojlanishning yangi modeli shakllangan bo'lib, uning asosiy moliyaviy manbai sifatida tijorat banklari kreditlari muhim rol o'ynamoqda. Asosiy kapitalga yo'naltirilgan investitsiyalarning 8 baravardan ziyod oshishi va kreditlar/YAIM nisbatining 32 foizga yetishi bank tizimining iqtisodiyotdagi moliyaviy vositachilik funksiyasi sezilarli darajada kuchayganligini tasdiqlaydi.

Ikkinchidan, mavjud ta'riflar tahlili asosida ishlab chiqilgan mualliflik ta'rifi investitsion kreditning boshqa kredit turlaridan fundamental farqini — ya'ni qaytarilish manbai sifatida bevosita loyihadan olingan pul oqimlari ko'rsatilishini — aniq belgilab beradi va ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Uchinchidan, tadqiqot jarayonida aniqlangan tizimli muammolar — uzoq muddatli resurslarning yetishmasligi, foiz stavkalarining yuqoriligi, monitoring tizimining rivojlanmaganligi — barchasi o'zaro bog'liq bo'lib, ularni kompleks yondashuv asosida bartaraf etish talab etiladi. Taklif etilgan «loyihalar fabrikasi» instituti, integratsiyalashgan risk boshqaruvi modeli va raqamli monitoring tizimi mazkur muammolarga tizimli yechim sifatida qaraladi.

Yakuniy xulosa sifatida ta'kidlash mumkinki, tijorat banklarida investitsion loyihalarni moliyalashtirish tizimini rivojlantirish faqat miqdoriy ko'rsatkichlarni oshirish bilan cheklanib qolmay, balki sifat jihatdan — risklarni boshqarish, raqamli transformatsiya va institutsional mustahkamlash orqali — amalga oshirilishi zarur. Ushbu yo'nalishda izchil islohotlar olib borish O'zbekiston



iqtisodiyotining 2030-yilga qadar barqaror va yuqori sur'atlarda rivojlanishini ta'minlashga munosib hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

7. O'zbekiston Respublikasining "Banklar va bank faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 5-noyabr. www.lex.uz.
8. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar va investitsiya faoliyati to'g'risida"gi Qonuni. 2019-yil 25-dekabr. www.lex.uz.
9. 2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida Farmoni (PF-60). 2022-yil 28-yanvar.
10. Abdullayev Yo., Qoraliyev T., Toshmurodov Sh., Abdullayeva S. Bank ishi: O'quv qo'llanma. – T.: IQTISOD-MOLIYA, 2010.
11. Abdullayeva Sh.Z. Pul, kredit, banklar. – T.: Moliya, 2000.
12. Alikayeva M.V., Aslanova L.O. va b. Strategicheskoye razvitiye malogo biznesa. – Nijniy Novgorod, 2018.
13. Balabanov I.T. Banki i bankovskoye delo. – SPb.: Piter, 2003.
14. Kamilova I.X. Tijorat banklarining investitsion kreditlar berish amaliyotini takomillashtirish masalalari // "Xalqaro moliya va hisob" jurnali. – №6, 2019.
15. Knyazev P.P., Klimenko M.N., Motornyuk D.V. Bankovskie produkty i uslugi: Investitsionnoye kreditovaniye. – M.: Yevroaziatskaya NPP, 2019.
16. Lavrushin O.I. Bankovskoye delo. – 8-ye izd. – M.: Knorus, 2009.

ZAMONAVIY ILM-FAN VA INNOVATSION TADQIQOTLARD NATIJALAR MUHOKAMASI

XXIV-RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA
YAKUNLARI BO'YICHA ILMIY ISHLAR TO'PLAMI

Issue - 5(2026)

Available at www.uznauka.uz



17. O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining statistik byulleteni,
2025. www.cbu.uz.
18. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari,
2025. www.stat.uz.
19. "Asakabank" ATB yillik hisobotlari (2020–2024).
20. "O'zmilliybank" AJ investitsion loyihalar bo'yicha hisoboti, 2024–
2025.